

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA DARS JARAYONIDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI VOSITA VA USULLARI**

Boltayeva Shahnoza

*Urganch shahar 29-sonli mактабнинг
boshlаng‘ich sinf o‘qituvchisi*

Zaripova Sevara

*Gurlan tumani 19-sonli mактабнинг
boshlаng‘ich sinf o‘qituvchisi*

Hozirgi XXI asrda sivilizatsiya tezda rivojlanib, borayotgan davrda o‘sib kelayotgan yosh-avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirib borishda, avvalo ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan o‘quvchilarning kreativligini oshirishga etiborni kuchaytirish zarur albatta. Bunda o‘qituvchining o‘zi kreativ pedagog bo‘lishi darkor. Chunki o‘quvchilar intiluvchan va ijodkor bo‘lsalarda o‘qituvchining o‘zi darslarga chuqur yondashmasligi natijasida ularni shakllantirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlashi, darslarda interfaol metodlardan foydalanishi, o‘quvchilar bilan tez-tez muloqatda bo‘lib turishi lozim. Hozirgi kunda darslar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali yanada samaradorlikka erishib kelinmoqda. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng tarzda qo‘llanib kelinayotgan metodlardan hisoblanadi. Bu biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro bahs-munozarali fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Ushbu usullarning afzallik jihatlari shundaki, butun faoliyat o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib mustaqil hayotga ongli munosabatda bo‘lishni ta’minlaydi. Interfaol o‘qitish metodlari deganda muammoli vaziyatni hal etish uchun o‘quvchilar o‘rtasida munozara erkin fikr alamashinuvini tashkil etish aqliy hujum texnologiyasidan foydalanish mumkin. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilar hozirjavoblikka o‘rganadi. Ularning lug‘at boyligi ko‘payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi va darsga qiziqishi ortadi. O‘quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifasi sifatida qaralmoqda. Interfaol usullarni qo‘llashda bellashuv, raqobat, tortishuv, bahslashish kabi munozaralar o‘quvchilarning ruhiyatining intelektual faolligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Sinf o‘quvchilari uyushgan holda biror bir muammoni yechishni izlaganlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o‘zining shunga o‘xshash yaqin bo‘lgan yoki aksincha mutlaqo qarama-qarshi fikrini bildirishga ham da’vat etadi. Bunday darslar jarayonida o‘qituvchidan ancha ko‘p ijodkorlik va faollik talab etiladi. Interfaol metodlarning turlari hozirgi kunda keng tarqalgan bo‘lib,

jumladan “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash”, “Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim”, “O‘z o‘rningni top”, “Sinkveyn”, “Qarama-qarshi munosabat” kabilar ham qo‘llanilib kelinmoqda. Ularni quyidagicha tasniflab o‘tamiz.

“Aqliy hujum” metodi.

Mazkur metod mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tamonlama fikr yuritish, shuningdek, o‘z tasavvurlarini va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiriladi. Ushbu metod quyidagicha tashkil qilinadi. O‘qituvchi ishtirokchilarga “Aqliy hujum” topshirig‘ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi. Boshqa o‘quvchilar g‘oyalarini ham rivojlantiradi. O‘qituvchi yuzaga kelgan barcha g‘oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so‘zga chiquvchilar tartibi o‘rnataladi, munozaraga barcha ishtirokchilar jalb etiladi va ularga o‘z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. O‘qituvchi ishtirokchilarning tanqidiy tafakkuri “Charxlanishi” uchun qisqacha tanaffus e’lon qiladi. O‘quvchilar guruhlanadilar va birinchi bosqichda bildirilgan g‘oyalarni muhokamalaydilar, g‘oyalarni guruh bo‘yicha birlashtirilib, mualliflar ularni tahlil qilishga kirishadilar va natijada o‘rtaga qo‘yilgan muammoning yechimiga tegishli bo‘lgan fikrlargina ajratib olinadi.

“Klaster” metodi

Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. U aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. U muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirishlariga, uni har tamonlama yoritib berishlariga xizmat qiladi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minalashga xizmat qiladi. U o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolarni erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarini bayon qilishga ham yordam beradi. Shuningdek, ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini ham beradi. Ushbu usuldan foydalanishda quyidagicha yondashish mumkin. Nimaniki, o‘ylagan bo‘lsangiz shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning qandayligi to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay uni shunchaki yozib boring. Belgilangan vaqt yakunlanmaguncha yozavering agar ma’lum bir muddat biror g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chizing. Bu harakatni yangi g‘oya kelgungacha davom ettiring. Yozuvning orfografiyasiga e’tibor bermang. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalarni o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatishni cheklab qo‘ymang.



“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi

Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil qilinishi mumkin. Har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O‘quvchilar faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan bo‘ladi.

“O‘z o‘rningni top” metodi

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo‘yicha tortishuvlar vujudga kelsa, ushbu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qilishi, muloqat ko‘nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyat bo‘ladi va dars so‘ngida o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasi va darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadilar. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga “Roziman” boshqasiga “Rozi emasman” degan so‘zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba’zi bir mavzuga oid savollar bo‘yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: Shaxsga kim? So‘rog‘i beriladi yoki Shaxsga kim so‘rog‘i berilmaydi. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi. Qaralayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o‘quvchilarga taklif etiladi. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra ikki guruhga bo‘lingan o‘quvchilardan o‘z qarashlarini asoslash so‘raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tish ruxsat etiladi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

O‘quvchilar orasidan berilgan muammo yuzasidan eng haqqoniy fikr aytgani o‘quvchini aniqlashlari so‘raladi.

“Sinkveyn” metodi

Bu metoddan foydalanganda o‘qituvchi mavzuga mos bitta so‘z tanlaydi va sinkveyn tuziladi. Bunda keyingi so‘zlar ma’nosiga qarab savol asosida yoziladi va oxirida gap hosil qilinadi.

Quruvchilar so‘ziga sinkveyn tuzishadi

1. Quruvchilar kimlar?
2. Ko‘rkam va chiroyli qanday?
3. Bino – nima?
4. Qurdilar – nima qildilar?
5. Quruvchilar ko‘rkam va chiroyli bino qurdilar?

“Qarama-qarshi munosabat” metodi

Metod o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. Mavzuning umumiylarini yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi. Ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi. Tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi. Jadval yaratilib, uning birinchi ustuniga muhim, ikkinchi ustuniga muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi. Kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi. Jamoaning umumiylariga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi. Jadvaldan yakka va jamoa asosida foydalanish mumkin.